ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR
Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Karomat Mullaxo‘jayeva

MAS’UL KOTIB
Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY’ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To‘xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O‘ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G‘aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo‘raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo‘ldosh Pardayev
Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Tanju Seyhan
Babur Şah ve Aruz İmlası 4

Gholamreza Razmi
Nevai ıle Arif Erdebılı'ye Dayanarak Ferhad'ın Kımlığıne daır bır Hıpotez 18

Ozoda Tojiboyeva
Favoyid ul-kibar”dagi farqli baytlar xususida **43**

Dilnoza Rustamova
Alisher Navoiy toshbosma devonlarining mo‘tabar qo‘lyozmalar bilan matniy-qiyosiy tadqiqi **54**

ADABIYOTSHUNOSLIK

Boqijon To'xliyev
Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkur uyg‘unligi 72

Qodirjon Ergashev
Maxzan ul-asror”ning o‘ziga xosligi va g‘oyaviy-estetik mohiyatiga doir 85

LINGVISTIKA

Samixon Ashirboyev
Alisher Navoiy nasriy asarlarida uyushiq kengaygan kesimlarning sintaktik-semantik xususiyatlari 98

Baxtiyor Abdushukurov
So‘z o‘zlashtirish an’anasi 108

ISSN 2181-9238 98—107

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Alisher Navoiy nasriy asarlarida uyushiq kengaygan kesimlarning sintaktik-semantik xususiyatlari

Samixon Ashirboyev[1]

Abstrakt

O‘zbek tilshunosligida kesimi unga bog‘langan sintaktik strukturalar bilan kelishi kesim tarkibining kengayishi sifatida qaralayotganligi ma’lum. Alisher Navoiy nasriy asarlarida bunday sintaktik strukturalar uyushiq holda ham qg‘llanganki, ularni qo‘shma gap sifatida ham talqin qilishga harakatlar bo‘lgan, lekin ularning bir predikativ markazga egaligi jihatidan bunday qarashning mavjud sintaktik vaziyatga mos emasligi tan olindi va uyushiq kesimlar sifatida talqin qilinishi e’tirof etilmoqda. Bunday kesimli gaplar Alisher Navoiy tomonidan badiiylikni ta’minlash uchun ham qo‘llanganligi ma’lum bo‘lib qolmoqda. Ta’kidlash joizki, bunday kengaygan va uyushiq kesimlar o‘zaro bog‘lovchisiz va bog‘lovchilar bilan sintaktik munosabatga kirishgan.

Ushbu maqolada uyushiq kengaygan kesimlarning bog‘lanish shakllari va semantik munosabatlari to‘g‘risida gap boradi.

Tayanch tushunchalar: *gap, sodda gap, qo‘shma gap, hokim komponent, kengaygan kesim, uyushiq kesimli sodda gap, predikativ markaz, kengaygan kesimlarning o‘zaro bog‘lanishi.*

Kirish

Alisher Navoiy ijodining lingvistik xususiyatlariga qiziqish hamon keng qamrovga ega bo‘lmoqda. Uning asarlari sintaksisi ham tadqiqot obyekti bo‘lib keldi [Аширбоев 1990; Азимов; Раҳматов 2006]. Shuningdek, adib asarlari poetik sintaksis jihatidan ham o‘rganila boshlandi. Bu borada N.Umarova va M. Rahmatovlarning ishlarini ko‘rsatish mumkin [Умарова 2005; Умарова 2021; Rahmatov 2022].

Shuni ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlarining sintaktik

[1]*Samixon Ashirboyev* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-5202-6494
Iqtibos uchun: Ashirboyev, S. 2025. “Alisher Navoiy nasriy asarlarida uyushiq kengaygan kesimlarning sintaktik-semantik xususiyatlari”. *Oltin bitiglar* 1: 98 – 107.

qurilishi o‘ta murakkab bo‘lib, aksariyat o‘rinlarda nostandart strukturalarni hosil qiladi. Ular haqida maxsus maqolalar ham e’lon qilindi ham [Ashirboyev, 2020].

Bu maqolada kengaygan kesimning sintaktik tabiatini tahlil qilish ko‘zda tutilmagan, balki kengaygan kesimlarning [Sayfullayeva, 2010, 353] sintaktik va uning mazmun munosabatlarini yoritish maqsad qilib qo‘yilgan. Asosiy urg‘u avvalo ularning bog‘lanishiga qaratiladi.

Asosiy qism

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida mazmun planiga ko‘ra murakkab, ifoda planiga ko‘ra esa murakkablashgan sodda gaplar ham mavjudki, bunday gaplarda bir ega pozitsiyasi saqlangani holda kesim guruhi undagi hokim so‘z boshqaruvida kengayib keladi. Bu hol sodda gaplarni, so‘zsiz, murakkablashtiradi. Bunday gaplar o‘zbek tilshunosligida yoyiq kesimli sodda gaplar [Абдураҳмонов 1962, 3-11], uning ikki va undan ortiq qo‘llanishi esa o‘sha yoyiq kesimlarning uyushishi deb yuritilgan edi [Ашурова, Убаева, Болтабоева 1962:42].

Yana shuni ta’kidlash lozimki, biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan sintaktik hodisalardagi kesim guruhini tashkil qiluvchi komponentlar bir-biriga teng qiymatli, ya’ni har bir iborada mustaqil predikatsiya ifodalangan. Ular to‘g‘risida avvalgi ishlarimizda ma’lumot berilgan.

Kesimi kengaygan holda ikki va undan ortiq qo‘llangan gaplarni sodda gap sathida o‘rganishda bunday kengaygan kesimlarning alohida egasi bo‘lmaganligi asosiy sababdir. Aslida bunday gaplar qo‘shma va sodda gaplar oraligida bo‘ladi [Вальгина 1978, 229]. Biz endi bevosita kengaygan uyusgiq kesimlar, shundan ushbu ishda fe’l boshqaruvli kengaygan kesimlar strukturasi va ularning o‘zaro semantik munosabatlari to‘g‘risida bahs yuritamiz. Avvalgi ishlarda ikki komponentdan iborat kengaygan kesimli gaplarda *va, dag‘i, ammā, yāxud* bog‘lovchilarining qo‘llanishiga to‘xtalgan edik, bu ishda esa, qisman, ikki, asosan, ko‘pkomponentli uyushgan kesimlarda *jā, ham, va ham, kim, čun* bog‘lovchilari va bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi so‘zlarning qo‘llanishi hamda ular bog‘lanishidagi semantik xususiyatlarga e‘tibor qaratamiz.

Yā bog‘lovchisi ish-harakat va holatlardan birining amalga oshishini bildirgan kengaygan kesimlarni bog‘laydi: *Haq taālā alarγa insāf va rahm sarï tavassal bergäj yā bu marhum jafākäšgä sabr va tahammul* (MQ 115). Biroq adib asarlarida bunday bog‘lovchili

gaplar juda kam uchraydi.

Čun bog‘lovchisi. Bu bog‘lovchini G‘.Abdurahmonov va Sh.Shukurovlar sabab, sabab-natija, payt ergash gaplarni bog‘lashda qatnashganligi va sodda gaplarda o‘xshatish, qiyoslash ma’nolarida qo‘llanganligini qayd qiladilar [Abdurahmonov, Shukurov 1973, 225-226]. Ashyoviy dalillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, *čun* bog‘lovchisi gap boshida yoki kengaygan kesimlar boshida kelib, avvalgisi keyingisida yuz bergan ish-harakatning paytini bildiradigan uyushiq kesimlarni bog‘lash vazifasini ham bajargan. Masalan: *Čun Musā äläjhissälām beš kün yürüdi, Tursinā tayïya jetišti* (TAH 340a). Bunda birinchi komponent payt mazmunini anglatgan. Uni hozirgi wzbek adabiy tiliga tranformatsiya qilganda *Musa alayhissalom besh kun yurgach* ko‘rinishga ega bo'ladi.

Kengaygan kesimlarning ko‘pkomponentli (uch va undan ortiq) qo‘llanishi. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida bunday kengaygan kesimlar faol qo‘llangan. Ulardagi hokim komponentning qofiyalanishiga ko‘ra ularning ikki turini qayd qilish mumkin:

1.Qofiyali qo‘llanish. Bunda hokim komponent bir xil so‘z shakllari bilan keladi: *Tavāze’ xalqnï kiši muhabbatïya šïfta qïlur va ulusnï faālïj muvaddatïya fïrïfta qïlur, dostluγ gülšänidä nazārat gülläri ačar va ul gülšändin uns-u ulfat bazmïda türlük güllär sačar, mütäkäbbir dushmanγa mulājïmat sarï yol körküzür va mu’ǯib xasm xātïrïya insānijït zavqïn olturγuzur, täkrārij hajāsïz muddaïjnï ujat sarhadïya bašqarur va te’dādïj insāfsïz aduvnï jamanlïγdïn ötkärür* (MK 80). Bu kengaygan kesimlarning hokim kompanenti *-r (ur/ür)* formantida va o‘zaro juftlilda qofiyalangan: *šïfta qïlur ↔ fïrïfta qïlur, ačar ↔ sačar, körküzür ↔ olturγuzur bašqarur ↔ ötkärür. Ayni o‘rinda asar badiiyligiga ham xizmat qilgan.*

2. Qofiyasiz qo‘llanish. Bunda *kengaygam kesimlarning hokim komponentlari turli fe’l shakllari bilan ifodalanadi: Güštāsp zardušt dinini üxtüjār qïlïb, elni ham ul mïllatqa kijürdi va Rumda Qaysarγa kiši jibärib, anï dayï bu dingä dalālat qïldï* (TMA 18). Bunda *-b ↔ -di/dï* affiksli juftliklar uyushgan: *üxtüjār qïlïb ↔ kijürdi, jibärib ↔ dalālat qïldï* hamda bu juftliklar o‘zaro zidlikni hosil qilgan.

Ko‘pkomponentli uyushiq kesimlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘lovchilar (yoki bog‘lovchisiz, bunda fe’lning turli amaliy shakllari va ular bilan birgalikda ko‘makchilar) yordamida munosabatda bo‘lishi mumkin.

Shuni aytin lozimki, ko‘pkomponentli uyushiq kesimlarning dastlabkilari ko‘pincha bog‘lovchisiz teng munosabatda bo‘lgan, bog‘lovchilar esa asosan oxirgi ikki komponentni bog‘lashda

qatnashgan. Bog‘lovchilar dastlabki komponentlarni bog‘lashda kam qo‘llangan.

Va bog‘lovchisi. Bu bog‘lovchining o‘zbek adabiy tili tarixidagi qo‘llanish doirasini alohida ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi, shu jumladan ko‘p komponentli uyushgan kesimlarni bog‘lashda ham faolligi kuzatiladi. Bu fikrni quyidagi o‘rinlarda qo‘llanishi ham tasdiqlaydi:

1. Eganing belgisini sanab ko‘rsatadigan ko‘pkomponentli uyushiq kesimlarlarning har birini bog‘lagan: *Käräm bir jafākäšniŋ šiddätij yükin kötärmäkdür* ***va*** *anï ul suubattïn ötkärmäkdür, birävniŋ mehnäti xārïj hamlïn qabul qïlmaq* ***va*** *ul qïlγannï tilgä keltürmämäk* ***va*** *aγïzγa almamaq* ***va*** *ul kišigä minnät qïlmamaq* ***va*** *anïŋ yüzigä köz salmamaq* (MQ 112). Bu misolda hokim komponent bo‘lgan fe’l ikki gurug – bo‘lishli va bolishsiz shaklda guruhlashgan. Bo‘lishli shaklda: *kötärmäkdür↔ ötkärmäkdür, qabul qïlmaq ↔ ačïlmaq* juftligi; bo‘lishsiz shaklda: *keltürmämäk ↔ almamaq, minnät qïlmamaq ↔ salmamaq* juftligini hosil qilgan va ular o‘zaro uyushgan. Faqat birinchi juftlik ikkinchi juftlik bilan bog‘lovchisiz munosabatga kirishgan.

2. Hokim so‘zi *-b* qo‘shimchali ravishdosh bilan ifoda qilingan (ularning mazmun munosabatlari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar) ko‘pkomponentli uyushiq kesimlarlar o‘zaro bog‘lovchisiz ham bog‘lanadi: *Bahrām anï özidän emin qïlïb, Hindustännï yana aŋa berib, xïrāž ta’jïn qïlïb, Sind qïrγaγïdïn Aǯam sarïγï vïlājatlarnï alïb, Rājnïŋ qïzï bilä nïhājatsïz yarāγ jasab, mülkigä keldi* (TMA 57). Ko‘rinadiki, bunda saj’ san’atidan foydalanilgan. Bunday kengaygan kesimlar ba’zan *va* bog‘lovchisi orqali ham bog‘langan: *Va mülüki tavājïfdïn köpini ul maqhur qïldï, mülkin alïb va özigä munqad qïldï* (TMA 34). Bunda *mülkin alïb* komponenti, körinib turïbdïki, *özigä munqad qïldï* komponenti bilän *va* bog‘lovchisi orqali bog‘langan.

Ham bog‘lovchisi takror qo‘llangan ba oldinma-keyin yuz beradigan ish-harakatni ifodalovchi keyingi ikki ko‘pkomponentli uyushiq kesimlarlarni bog‘lagan: *Rustam ešitib, Xurāsāndïn sïpāh tartïb, madājïnγa kelib, Āzarmïdoxt bilä masāf tutub,* ***ham*** *atasï qïlγan muddaānï hāsïl qïldï,* ***ham*** *qanïγa qasās qïldï* (TMA 79). Bu bog‘lovchining takror qo‘llanishi uni hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan yaqinlashtiradi.

Daγï bog‘lovchisi ham oldinma-keyin yuz beradigan voqea-hodisani bildiruvchi eng so‘nggi ko‘pkomponentli uyushiq kesimlararni bog‘lagan: *Isfändijār borib, Arjaspnï öltürüb, Turannï Bajtatqača alïb, sïŋillärin äsirlikdän čïqarïb, azïm γanājïm bilä keldi*

dayï *saltanat ïstïd'āsï qïldï* (TMA 19). *Bahrām-i Čübinä mutayγyajjïr bolub, aŋa jayïj boldï* ***dayï*** *Parvïz atïya va anïŋ navkärligigä özin mansub qïldï* (TMA 68). Bu gaplarning birinchisida dastlabki, ikkinchisida esa oxirgi kengaygan kerimlarni bog'lagan. Shuningdek, juft-juft holda kelgan va oldinma-keyin yuz bergan voqea-hodisani ifodalovchi ko'pkomponentli uyushiq kesimlarlarni bog'lashda ham qatnashadi: *Damāvandnï binā qïldï, ammā anda gāhï bolur erdi* ***dayï*** *Istaxrnï binā qïldï, ammā köpräk avqāt anda bolur erdi* (TMA 1). Bu gapda birinchi juftlik *Damāvandnï binā qïldï, ammā anda gāhï bolur erdi*; ikkinchi juftlik esa *Istaxrnï binā qïldï, ammā köpräk avqāt anda bolur erdi* birikmalari bo'lib, ular o'zaro *dayï* bog'lovchisi orqali bog'langan. Quyidagi gapda ham *dayï* bog'lovchisi shunday vazifada kelgan: *El dayï aŋa muttafïq bolub xuruž qïldïlar* ***dayï*** *Sepäxān vālïsïnï öltürüb, Zahhāk üstigä jürüdilär* (TMA 6). Bu gapdagi bizni qiziqtirgan bog'lovchi *el dayï aŋa muttafïq bolub xuruž qïldïlar* komponentidan so'ng qo'llangan *dayï* bog'lovchisidir. U *el* so'zi bilan ifoda qilingan ega tomonidan amalga oshiriladigan ish-harakatni bildirgan va *aŋa muttafïq bolub xuruž qïldïlar* hamda *Sepäxān vālïsïnï öltürüb, Zahhāk üstigä jürüdilär* juft-juft holda qo'llangan komponentlarni bog'lagan. Ma'lumki, ***dayï*** bog'lovchisining bu funksiyasi hozirgi o'zbek adabiy tilida tugagan.

Ammā bog'lovchisi bir-biriga zid bo'lgan kengaygan kesimlarni emas, balki avvalgi kengaygan kesimga qo'shimcha ma'lumot, izoh ma'nosini ifodalaydigan kengaygan kesimlarni bog'lagan. Bunga yuqoridagi gap yaqqol misol bo'la oladi. Undagi *anda gāhï bolur erdi* komponenti *Damāvandnï binā qïldï* komponentiga, *köpräk avqāt anda bolur erdi* komponenti esa *Istaxrni bino qildi* komponentiga qo'shimcha ma'lumot, izoh beradi, xolos. *Ammā* bog'lovchisining bunday vazifasi aslida qo'shma gaplarda qayd qilingan edi [Abdurahmonov 1974, 33]. *Ammā* bog'lovchisi ba'zan oxirgi kengaygan kesimlar oldida kelib ham yuqoridagi mazmunni ifoda qiladi: *Nošïravān-ul-Ādïl binni Qubād čün saltanat taxtïn mušarraf qïldï va xilofat tojin sarafroz etti, Ardašer Bābākān qāidä va rusumïn ïhjā qïldï va anïŋ vasïjatnāmalarïnï mutālaa qïlïb, ul dästür bilä amal qïlurγa mürtäkib boldï,* ***ammā*** *adālat va šavqat qānunïnï andïn dayï artturdï* (TMA 62). Bu gapdagi *adālat va šavqat qānunïnï andïn dayï artturdï* kengaygan kesimi avvalgi komponentlardan anglashilgan mazmunga zid emas, balki uni yanada to'ldiradi. Bu xususiyat faqat adib asarlaridagina qayd qilinadi.

Va lekin bog'lovchisi. Bu bog'lovchi biz uchratgan misolda oldingi kengaygan kesimdagi mazmun keyingisida to'ldirilgan,

izohlangan kengaygan kesimlarni bog‘laydi: *Mïŋ jašadï* ***va lekin*** *axïr umrda qïrq jïl saltanat qïldï dayï Sijāmäk oγlï Hüšäŋnikim, näbiräsi erdi, valïahd qïlïb, vafāsïz jahānγa vïdā’ qïldï* (TMA 2). *Va lekin* bog‘lovchisining bunday vazifasi “Qutadg‘u bilig” asarida ham qayd qilingan [Abduraxmanov 1967, 140], lekin bu asarda u qo‘shma gaplardagina bunday vazifada qo‘llangan. *Va lekin* bog‘lovchisining shunday variantda hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishi ham to‘xtagan.

Vale bog‘lovchisi. Bu bog‘lovchi zidlovchi bog‘lovchi bo‘lib, buyuk o‘zbek adabiy tili matnlarida shunday vazifada qo‘llangan [Abdurahmonov, Shukurov 1973, 220]. Bu bog‘lovchini G. Abdurahmonov ikkinchi qismida qo‘shimcha ma’lumot, izoh ifodalanadigan qo‘shma gaplarda qo‘llanishini ko‘rsatgan [Abdurahmonov 1974, 33].

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida *vale* bog‘lovchisi yuqoridagi vazifada kengaygan uyushiq kesimlarda ham qo‘llangan: *Alqïssa, Güštāsp bu xabardïn vāqïf bolγač, bu ishdin köp pušajmān boldï, vale Isfandïjār oγlï Bahmannï valiahd qïldï* (TMA 20). Haqiqatan ham, *Isfandïjār oγlï Bahmannï valiahd qïldï* komponenti oldingi kengaygam kesim bilan zid mazmun munosabatida bo‘lmay, balki avvalgi kengaygan kesim mazmunini yanada to‘ldiradi, unga qo‘shimcha ma’lumot beradi. *Vale* bog‘lovchisining bunday vazifada qo‘llanishini uning ko‘p ma’noligidan deb ham qarash lozim bo‘ladi. Ko‘rinadiki, zidlovchi bog‘lovchilarning Alisher Navoiyning nasriy asarlarida yangi ma’nosi, ya’ni keyingi kengaygan kesimlar avvalgisini yanada izohlaydigan, to‘ldiradigan kengaygan uyushiq kesimlarni bog‘lash vazifasida kelishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Buni Alisher Navoiyning nasriy asarlari tilining o‘ziga xos xususiyati deb qarash mumkin.

Soŋra ko‘makchisi funksional bog‘lovchi vazifasida kelib, *va* bog‘lovchisining funksiyasini bajargan hamda oldinma-ketin yuz beradigan ish-harakat va holat mazmunini ifoda qiladigan kengaygan kesimlarni bog‘lagan: *Biz ul söznikim, muttafiqun alajhdur, adā qïlalï,* ***soŋra*** *ul sözlärnikim, muxtalïfun fïhdur, zikr qïlïb, har nimägäkim, oxšašï köpräktur, qarār qïlalï* (TMA 30). Bu gapda *ul söznikim adā qïlalï* kengaygan kesimi *ul sözlärni zikr qïlïb* komponentiga *soŋra* so‘zi orqali bog‘langan.

Soŋra so‘zi *va andïn* so‘zlari bilan birikib, murakkab funksional bog‘lovchi sifatida oldinma-ketin yuz bergan ish-harakatni bildiradigan kengaygan kesimlarni bog‘lagan: *Güdärz binni Erān, atasïniŋ valiahdï erdi, čun pādšāhlïqqa olturdï, Sām vïlājatïγa barïb,*

Yahjo alayhïssalām qatlï ïntïqāmïγa juhudlarnï qïrdï, qalγanïdïn ba'zïnï avāra va ba'zïnï zalïl qïldï ***va andïn soŋra*** *banï Isrāïl qavmïdïn munqati' boldï* (TMA 33). Bu gapdagi *qalγanïdïn ba'zïnï avāra va ba'zïnï zalïl qïldï* kengaygan kesimiga *banï Isrāïl qavmïdïn munqati' boldï* kesimiga *va andïn soŋra* bog'lovchisi orqali bog'langan. Ma'lumki, mustaqil so'zlarning bog'lovchilik amalini bajarishi ilmiy adabiyotlarda *skreplar* deb yuritiladi [Qarang: Cheremisina, Kolosova 1987, 136]. Biz *skrep* termini o'rnida *funksional bog'lovchi* atamasini tavsiya etdik.

Čun bog'lovchisi. Bu bog'lovchi birinchi kengaygan kesim boshida keladi va hokim komponent *-di* qo'shimchali o'tgan zamon fe'li bilan ifodalanadi va bu bog'lovchi qatnashgan kengaygan kesim keyingisi bilan payt-natija, sabab-natila mazmun munosabatlarida bo'ladi: *Yalaš binni Firuz čun saltanat taxtïn aldï, Suxrākim, atasï zamanïda väzir va mämläkät masālïhïda mushïr erdi, anï hamul vuzarāt mansabïγa ta'jïn qïldï va mülk ïxtïjārïn aŋa tapšïrdï* (TMA 59).

Čun bog'lovchisi birinchi kengaygan kesimlar boshida qatnashganda, shu iboradan keyin boshqa bog'lovchi qo'llanmaydi va u keyingi kengaygan kesim bilan bog'lovchisiz munosabatga kirishadi. To'g'ri, ba'zan *čun* bog'lovchisi birdan ortiq (biz uchratgan misolda ikkita) kengaygan kesimlarga ham aloqador bo'ladi va bunday paytda aloqador komponentlar orasida *va* bog'lovchisi qo'llanadi, lekin aloqador komponentlar keyingilari bilan o'zaro bog'lovchisiz munosabatga kirishadi. Bu yuqorida keltirilgan misolda ravshan ko'rinadi: *Nošïravān-ul-Ādïl binni Qubād* ***čun*** *saltanat taxtïn mušarraf qïldï va xïlāfat tāžïn sarafrāz etti, Ardašer Bābākān qāïda va rusumïn ïhjā qïldï va anïŋ vasïjatnāmalarïnï mutālaa qïlïb, ul dästür bilä amal qïlurγa mürtäkib boldï, ammā adālat va šafqat qānunïn dayï artturdï* (TMA 62). Bu gapda ***čun*** bog'lovchisiga *saltanat taxtïn mušarraf qïldï va xïlāfat tāžïn sarafrāz etti* kengaygan kesimlari aloqador bo'lib, ulardan so'ng hech qanday bog'lovchi vosita qo'llanmagan, lekin unga aloqador kengaygan kesimlar o'zaro *va* bog'lovchisi orqali bog'langan.

Xulosa

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu kabi kengaygan kesimlarni qo'llashda Alisher Navoiy badiiy til vositalaridan juda ustalik bilan foydalanib, ayrimlarini radif-qofiya asosida saj' qilgan bo'lsa, ba'zilarida deyarli barcha kengaygan kesimlar orasida *va* bog'lovchisidan, ba'zi o'rinlarda esa teng bog'lovchilarning boshqa

turlaridan foydalangan. Shu bilan bir qatorda, bir xil bog‘lovchilarni takrorlashdan qochish uchun bir necha bog‘lovchilarni ketma-ket qo‘llagan. Bu holat, ayniqsa, yuqorida *va lekin, va andïn soŋra* bog‘lovchi va funksional bog‘lovchisiga keltirilgan gapda yaqqolroq ko‘rinadi.

Kengaygan kesimlaning gap tarkibida, bu o‘rinda Alisher Navoiy asarlari sodda gaplar tarkibida qo‘llanishi buyuk adibning adabiy tildagi o‘ziga xos mahorati deb qaralishi o‘rinli bo‘ladi va bunday gaplardan foydalanish davr adabiy tilining me’yorini hosil qilgan.

Qisqartmalar: V – Vaqfiya, ML – Muhokamat-ul-lug‘atayin, MN – Majolis-un-nafoyis, MQ – Mahbub-ul-qulub, NM – Nasoyim-ul-muhabbat, TMA – Tarixi muluki Ajam, MSh – Munshaot, XM – Xamsat-ul-mutahayyirin, HPM – Holoti Pahlavon Muhammad.

Adabiyotlar

Абдураҳмонов, Г. 1974. *Тарихий синтаксис.* Тошкент: Фан.

Абдураҳмонов, Г. 1962. “Ўзбек тили синтаксисида мураккаб гаплар масаласига доир”. *Ўзбек тили ва адабиёти масалалари,* 3. Тошкент.

Азимов, И. 2001. *Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бир бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари:* Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.

Аширбоев, С. 1990. *Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари:* Филол. фан. док. ... дис. Тошкент.

Ашурова, Д., Убаева, Ф., Болтабоева, Ҳ. 1962. *Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари.* Тошкент: Фан.

Валгина, Н. С. 1978. *Синтаксис современного русского литературного языка.* Москва: Высшая школа.

Маҳмудов, Н. М. 1984. *Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия.* Тошкент: Ўқитувчи.

Рахманов, М. 1971. *Синтаксические особенности языка газеты “Туркистон вилоятининг газети”:* Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент.

Раҳматов, М. 2008. *Алишер Навоий насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари:* Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.

Rahmatov, M. 2022. “Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiyasi”. *O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv.* Toshkent: Donishmand ziyosi.

Sayfullaeva, R.R., Mengliev, B.R., Raupova, L.R., Qurbonova, M.M., Abuzalova, M.Q., Yo‘ldos’hev, D.N. 2019. *Hozirgi o‘zbek tili.*

Toshkent (elektron variant).
Умарова, Р. 2005. *Алишер Навоий мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши:* Филол.фан.номз. ... дис. Фарғона.
Умарова, Н. 2021. *Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи:* Филол. фан. докт. ... дис. (DsC). Фарғона.
Черемисина, М.И., Колосова, Т.А. 1987. *Очерки по теории сложного предложения.* Новосибирск: Наука.
Ғуломов, А. Ғ., Асқарова, М. А. 1965. *Ҳозирги ўзбек адабий тили.* Тошкент: Ўқитувчи.
Ashirboyev, S. 2020. "Forms of interactions in simple sentences in prose of alisher navoi are one the tools of complicating the sentences". *Tteoretical & applied scence. Phladelphia.*
Ashirboyev, S. 2020. "Suntactic redundancy and tautology in complicated simple sentences in old uzbek language (based on the materials the prose of Alisher Navoi)". Jornal of critical riviers, India.

Syntactic-semantic features of extended sentences in the prose works of Alisher Navoi

Samikhan Ashirboev[1]

Abstract

It is known that in Uzbek linguistics the presence of a sentence with syntactic constructions attached to it is considered as an extension of the sentence structure. In the prose works of Alisher Navoi, such syntactic constructions are used both in a unified form, and there were attempts to interpret them as complex sentences, but since they have one predicative center, it is recognized that such a view does not correspond to the existing syntactic situation, and their interpretation as combined sentences is recognized. It is known that such sentences were also used by Alisher Navoi to ensure artistic quality. It is worth noting that such extended and combined sentences entered into syntactic relations with each other without conjunctions and with conjunctions. This article considers the forms of communication and semantic relations of combined extended sentences.

Key words: *sentence, simple sentence, complex sentence, dominant*

[1] *Samikhan Ashirboev* – Doctor of Philological sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.
E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-5202-6494
For citation: Ashirboev, S. 2025. "Syntactic-semantic features of extended sentences in the prose works of Alisher Navoi". *Golden Scripts* 1: 98 – 107.

component, extended sentence, simple sentence with a compound sentence, predicate center, relationship of extended sentences.

References

Abdurahmonov, G. 1974. *Tarixiy sintaksis.* Toshkent: Fan.

Abdurahmonov, G. 1962. "O‘zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir". *O‘zbek tili va adabiyoti masalalari,* 3. Toshkent.

Azimov, I. 2001. *Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bir bosh bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari:* Filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.

Ashirboev, S. 1990. *Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari:* Filol. fan. dok. ... dis. Toshkent.

Ashurova, D., Ubaeva, F., Boltaboeva, H. 1962. *Gapning uyushgan va ajratilgan bo‘laklari.* Toshkent: Fan.

Valgina, N. S. 1978. *Sintaksis sovremennogo russkogo literaturnogo yazыka.* Moskva: Vыsshaya shkola.

Mahmudov, N. M. 1984. *O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya.* Toshkent: O‘qituvchi.

Raxmanov, M. 1971. *Sintaksicheskie osobennosti yazыka gazetы "Turkiston viloyatining gazeti":* Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. Tashkent.

Rahmatov, M. 2008. *Alisher Navoiy nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog‘lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari:* Filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.

Rahmatov, M. 2022. "Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiyasi". *O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv.* Toshkent: Donishmand ziyosi.

Sayfullaeva, R.R., Mengliev, B.R., Raupova, L.R., Qurbonova, M.M., Abuzalova, M.Q., Yo‘ldos'hev, D.N. 2019. *Hozirgi o‘zbek tili.* Toshkent (elektron variant).

Umarova, R. 2005. *Alisher Navoiy maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi:* Filol.fan.nomz. ... dis. Farg‘ona.

Umarova, N. 2021*. Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi:* Filol. fan. dokt. ... dis. (DsC). Farg‘ona.

Cheremisina, M.I., Kolosova, T.A. 1987. *Ocherki po teorii slojnogo predlojeniya.* Novosibirsk: Nauka.

G‘ulomov, A. G‘., Asqarova, M. A. 1965. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili.* Toshkent: O‘qituvchi.

Ashirboyev, S. 2020. "Forms of interactions in simple sentences in prose of alisher navoi are one the tools of complicating the sentences". *Tteoretical & applied scence. Phladelphia.*

Ashirboyev, S. 2020. "Suntactic redundancy and tautology in complicated simple sentences in old uzbek language (based on the materials the prose of Alisher Navoi)". Jornal of critical riviers, India.